



## ERKIN A'ZAM ASARLARIDA DAVR MUAMMOLARINING YORITILISHI

**Sirojiddinova O'g'iloy**

ShDPI Tillar fakulteti,  
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7648078>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-fevral 2023 yil  
Ma'qullandi: 10-fevral 2023 yil  
Nashr qilindi: 17-fevral 2023 yil

### KEY WORDS

*roman, qissa, hikoya, qochirim,  
davr muammosi*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Erkin A'zam ijodiga mansub hikoya, qissa va romanlarning qahramonlari tavsifi yoritilib, qahramonlarning davrga moslashishi va ularning qarashlari hamda holati haqida fikrlar bayon etilgan.*

Taniqli yozuvchi Erkin A'zamning roman, qissa va hikoyalari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, uning takrorlanmas, faqatgina o'ziga xos uslubi bor ekanligiga guvoh bo'lamiz. Xalqchil iboralar, kinoyali qochirimlar yozuvchi asarlarining ajralmas bo'lagidir. Erkin A'zam qahramonlari zamonga befarq emas. Qahramonlar xarakteri ham birmuncha keskin, qatiyatli. Adabiyotshunos Abdulla Ulug'ov e'tirof etganidek "Erkin A'zamov voqealarni chiroyli naql qilish, qahramonlarni ta'sirchan so'zlatish bilan cheklanmaydi. U hodisalarning mohiyatini ochishga, bugungi kun kishilarining dunyoqarashidagi o'zgarishlarni tahlil qilishga intiladi" [5]. Erkin A'zam qahramonlarini uzoqdan izlamaydi. Xalq orasidagi, xalqning dardini bilgan, xalqqa xizmat qilgan odamlar (Bolta Mardon. "Suv yoqalab"), hayot pozitsiyasini haqiqat, rostgo'ylik tashkil etuvchi obrazlar (Asqar. "Otoyining tug'ilgan yili" qissasi) jamiyat hayotidagi noxush illatlarni ro'y-rost tasvirlovchi va ularni ayovsiz tanqid qiluvchi realistlar (Farhod Ramazon. "Shovqin" romani) va boshqalar uning asarlarining bosh qahramonlaridir.

Erkin A'zam asarlarida bir qator davr muammolari ham qalamga olingan. "Shovqin" romanida bosh qahramon Farhod Ramazon tilidan aytilgan "Hammayoq o'zbekcha, O'zbekiston bo'lib ketganiga falon yil o'tdi-yu, bular hamon o'sha "ikkinchi ona til" larini qo'ymaydi. Filmni ovozashtirganda binoyidekkina o'zbekcha sayrab berishadi-yu, o'zaro gap-so'zga kelganda mana shu ahvol!" gaplari orqali bir qarashda kino odamlari haqida yozilgan asar orqali

yoʻzuvchi koʻplab davr muammolarini ochib bermoqchiligining guvohi boʻlamiz. Asarni oʻqish davomida Farhod Ramazonning tilimiz, millatimiz, milliy genimizning buzilishiga qarshi ekanligi, qarsakbozlik, shuhratparastlik kabi jamiyat hayotida yildan yilga ildiz otib borayotgan illatlardan nafratlanishi eʼtiborimizni tortadi. “Shovqin” deya ramziy nom qoʻyilgan bu asarida Erkin Aʼzam Farhod Ramazon hayoti misolida jamiyatda yuz berayotgan muammolarni yetarlicha yoritib berolgan.

Erkin Aʼzam “Anoyining jaydari olmasi” hikoyasida ham oʻz uslubidan uzoqlashmagan. Bu hikoyada ham yoʻzuvchi yashirin boʻlsa ham davr muammolari haqida qalam yuritgan. Hikoya bosh qahramoni – Ramazon. Bir qarashda oddiy, sodda, goʻl koʻringan bu yigit obrazi orqali yoʻzuvchi xalqimiz qoniga singib ketgan mehmondoʻstlik, saxiylik, shu bilan birgalikda ishonuvchanlik, ortiqcha dabdaba kabi xislatlarni koʻrsatib beradi. Hikoyamiz qahramoni Ramazon qishloqdan toʻlib-toshib keladi-yu, shaharda bor pulini sarflab boʻlgach, yoʻlkoraga pulni doʻstidan undirmoqchi boʻladi. Bu holat xalqimizning topgan-tutganini toʻy-hashamga sarflab, hattoki qarzga ham botishini eslatadi. Uning bironing aybini yashirib, qamalib ketishi ham, qamoqdan chiqib ham bu ishidan pushaymon boʻlmagani ham biz uchun notanish vaziyat hisoblanmaydi. Erkin Aʼzam qahramoni Ramazon misolida jamiyat hayotidagi muammolarga tanqidan yondashadi. Zamona odamlarining xarakteri, his-tuygʻulari, maqsad-muddalari bu hikoyada bir qadar ochib beriladi. Hikoya oxirida “Afandi” obrazining tilga olinishi va bu obrazning hikoya bosh qahramoni Ramazonga oʻxshatilishi, xalqimiz orasida hali ham Afandi kabi xalq uchun kuyunuvchi, kezi kelganda siz-u bizga ham odamiylikdan saboq beruvchi insonlar borligi haqida xabar beradi.

Erkin Aʼzam oʻz asarlarida chiroyli oʻxshatishlar qoʻllamaydi. Badiiy tasvir namunalarining nozik qirralari ham yoʻzuvchini qiziqtirmaydi. U har bir asarida jamiyat hayotida uchrovchi qaysidir ogʻriqli muammoni koʻrsatishga harakat qiladi. Oʻz maqsadini yashirin tanqidlar, kinoyali qochirimlar ortiga berkitadi. Yoʻzuvchining bir qator asarlarida, jumladan, “Shovqin” romanida, “Otoyining tugʻilgan yili”, “Tanho qayiq” qissalarida, “Togʻa”, “Anoyining jaydari olmasi”, “Taʼziya” hikoyalarida buni yaqqol sezishimiz mumkin. Erkin Aʼzam har doim oʻz uslubiga sodiq qolishga harakat qilgan. Bu yoʻlda turli yoʻzuvchilarning ijod olami bilan ham tanishib, ulardan saboq oladi. Lekin hech biriga taqlid qilishni xohlamaydi. Bu haqda yoʻzuvchining oʻzi shunday aytadi: “Uslubimga yaqinmi-yoʻqmi bilmadim-u, Aziz Nesin, Fozil Iskandar, Vasiliy Aksyonov, Grant Matevosyan, oʻzimizdan Murod Muhammad Doʻst ijodlari menga qiziq tuyuladi.

Ulardan nimadir oʻrgangan

bo'lishim mumkindir, ammo birortasiga o'xshamoqqa harakat qilmaganman. Qo'ldan kelganicha, boriga baraka deb yuribmiz, kim bilsin" [4].

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, Erkin A'zam o'z asarlari bilan zamonaviy o'zbek adabiyotiga salmoqli hissa qo'shdi. Yozuvchi o'z so'ziga, uslubiga ega ijodkor ekanligini isbotladi. U ochib bergan ayrim davr muammolarining hozirgi kunda ham dolzarbligicha qolayotganidan Erkin A'zamning nechog'lik qalami o'tkir yozuvchi ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Erkin A'zam. Suv yoqalab. Jannat o'zi qaydadir. -T.: "Sharq", 2007.
2. Erkin A'zam. Otoyining tug'ilgan yili. -T.: "G'afur G'ulom", 1981.
3. Erkin A'zam. Shovqin. "O'zbekiston". -T.: 2001.
4. www.ziyo.uz.com
5. kh-davron.uz

